

**КО'P YILLIK BUG'DOY YANGI EKIN TURI**

*Janubiy dehqonchilik ilmiy tadqiqot instituti*

*Tayanch doktorant: Nortojiyev Sunnatillo Farhod o'g'li*

*Qishloq xo'jaligi fanlari doktori professor: Amir Amanov*

*Annotatsiya: Ko'p yillik bug'doy respublikamizning janubiy mintaqasida ilk bor yangi o'zlashtirilayotgan ekin turi hisoblanadi. Ko'p yillik bug'doyning xususiyati shundan iboratki uni fermerlar xam g'alla sifatida xam yem-xashak sifatida foydalansa bo'ladilar. Yana bir yaxshi tarafi shundaki ildiz tizimi yaxshi rivojlanganligi uchn eroziyani kamaytiradi va suv sifatini yaxshilaydi.*

*Аннотация: Многолетняя пшеница – новая культура, впервые осваиваемая в южном регионе нашей республики. Характерной чертой многолетней пшеницы является то, что фермеры могут использовать ее как на зерно, так и на корм. Еще одним преимуществом является то, что хорошо развитая корневая система снижает эрозию и улучшает качество воды.*

*Annotation: Perennial wheat is a new crop that is being developed for the first time in the southern region of our republic. The characteristic of perennial wheat is that farmers can use it both as a grain and as fodder. Another advantage is that the well-developed root system reduces erosion and improves water quality.*

**Mavzuning dolzarbliligi.** Dunyoda qishloq xo'jaligi mahsulotlariga va oziq-ovqat mahsulotiga bo'lgan talab kelgusida yiliga 1,2% ga oshadi. Bundan tashqari, dunyo aholisining 8,5 milliard kishiga ko'payishi tufayli iste'molchilar ham ko'paymoqda va sog'lom ovqatlanish muxim masalalardan biri hisoblanadi.

Oziq-ovqat xavfsizligi, aholi sonining tez suratlarda o'sishi, iqlim o'zgarishi global muammolardan biridir.

Malumotlarga ko'ra, donning jahon savdosi 21 foizga o'sib, 2030 yilga kelib 542 million tonnaga yetadi. Dunyo aholisining qariyb 20 foizini oziq-ovqat bilan ta'minlaydigan Xitoy, jahon qishloq xo'jaligi yerlarining atigi 9 foizini egallaydi.

Respublikamizda 1 mln 300 ming gektardan ortiq maydonlarga boshqoli don ekinlari ekilib, kelinmoqda. Bu ko'rsatgich O'zbekiston Respublikamizda boshqoli don yetishtirish 1,4% ni tashkil qilmoqda. Keyingi yillarda yerdan samarali oqilona foydalanish dolzarb vazifalaridan biri hisoblanib kelmoqda.

Olimlarning takidlashicha ko'p yillik bug'doy, bu ekin yangi o'zlashtirilayotgan ekin turi bo'lib uni g'alla uchun xam yem-xashak, sifatida xam foydalanish mumkin. Shuningdek, uning yana bir afzallik tomomi shundaki, ildiz tizimi yaxshi rivojlanganligi uchun eroziyani kamaytiradi va suv sifatini yaxshilaydi.

Ko'p yillik bug'doyning o'sish qobiliyati uchun don xususiyatlari bir yillik bug'doynikiga o'xshaydi. Ko'p yillik o'sish odati qayta o'sishni anglatadi va donini yig'ishtirib olingandan so'ng yana bir necha yil xosil bilan taminlaydi [1].

Olimlarning takidlashicha, ko'p yillik bug'doy dehqonchilik tizimida chorva mollari uchun xam qo'shimcha yaylovlar bilan ta'minlaydigan, shuningdek, g'alla hosildorligining pasayishini qoplashi mumkin bo'lgan to'g'ridan-to'g'ri ishlab chiqarishning potentsial foydalari mavjud. Ko'p yillik bug'doy qurg'oqchilikka, issiqlikka bardoshli va tuproq unumdorligi past yerlarda xam yaxshi o'sivchi ekin turi hisoblanadi. Ko'p yillik yem-xashak o'tlari ko'proq qurg'oqchilikka moslashgan ko'p yillik bug'doyda talab qilinadigan tarqalish va xususiyatlarni ko'rsatishi mumkin [2].

Olimlarning takidlashicha, ko'p yillik bug'doy shakillarini maxalliy rayonlashgan bir yillik shakillari bilan chatishtirish asosida issiqlik qurg'oqchilikka, sho'rga va kasalliklarga chidamli, yuqori ildiz massasiga ega tuproq unumdorligi past yerlarda kuchli o'suvchi don va yem- xashak maqsadida

xam foydalanishga yaroqli ko'p yillik bug'doy navlarini yaratish maqsad qilib olingan [3].

Olimlarning takidlashicha, *Thinopyrum spp.* bug'doy bilan duragaylasha oladigan va yashovchan amfiploidlar yoki qisman amfiploidlar hosil qiladi. Shu bilan birga, *Thinopyrum spp.*ni madaniylashtirish orqali ko'p yillik bug'doyni rivojlantirishga harakat qilindi. Eng istiqbolli ko'p yillik bug'doy - *Thinopyrum* liniyalari har ikkala ota-onaning istalgan xususiyatlarini birlashtirgan xolda don yoki bo'lmasa yem-xashak ekinlari sifatida xam foydalanish mumkin. Bug'doy - *Thinopyrum* liniyalari turli qishloq xo'jaligi tizimlariga moslasha oladi. Ushbu maqolada *Thinopyrum* asosidagi ko'p yillik bug'doyning rivojlanishi va bug'doy - *Thinopyrum* duragaylarining genetik jihatlarini, ko'paytirish usullari amalga oshiriladi [4].

Olimlarining takidlashicha, hozirda ko'p yillik formalar yuqorida keltirilgan bir qancha afzalliklarga ega bo'lishiga qaramasdan eng asosiy kamchilliklari, xosildorligi 20-50 % gacha, 1000 dona don ko'rsatgichlarining 20-40 % gacha xamda oqsil va kleykavina ko'rsatgichlarining 10-15% gacha kamligidir. Shuning uchun ushbu namunalarning qimmatbaho ko'rsatgichlarini yanada yaxshilash uchun maxalliy navlar bilan chatishtirish asosida imkoniyatlarni oshirish bilan birgalikda stres omillariga chidamli yumshoq bug'doyni seleksion ashyolarini yaratish nazarda tutilgan [5].

### ***Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati***

1. S.Snapp, "What is Perennial Wheat?" // 2014 y 1-4 bet
2. Lindsay W. Bell, Len J. Wade, Mike A. Ewing. "Perennial wheat: a review of environmental and agronomic prospects for development in Australia" // *Crop and Pasture Science*. 2010 y (9)679-690
3. Z. Ziyoyev, D. Musurmanov, S. Aliqulov, A. Amanov "Ko'p yillik bug'doy – g'allachilikda yangi istiqbolli yo'nalish" // *O'zbekiston qishloq xo'jaligi*. №10 2018-y 27-bet.



4. *Lei Cui, Yongkang Ren, Timothy D. Murray, Wenze Yan, Qing Guo, Yuqi Niu, Yu Sun, Hongjie Li. "Development of Perennial Wheat Through Hybridization Between Wheat and Wheatgrasses: A Review" //Engineering. 2018 y 507-513-pages.*

5. *D. Musurmanov, A. Amanov, S. Aliqulov, F. Bekmirzayev "Ko'p yillik bug'doy seleksiyasi" //Agro ilm № 3 [81].2022 y 11-12 bet*